



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 28-dekabr

757-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-dekabrdaqi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 12-dekabrdaqi PQ-431-son qarori ijrosi haqida”gi 612-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-dekabrdaqi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 12-dekabrdaqi PQ-431-sonli qarori ijrosi haqida”gi 612-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, tumanda qishloq xo‘jaligi sohasida zamonaviy agrotexnologiyalarni keng joriy etish, ekinlarni ekish, yetishtirish va hosilni yig‘ib olishni bosqichma-bosqich to‘liq mexanizatsiyalash, agrar sohada qishloq xo‘jaligi texnikalariga servis (texnik holatini ko‘rikdan o‘tkazish va ta‘mirlash) xizmatlari ko‘rsatish darajasini oshirish va servis ustaxonalari texnologik bazasini rivojlantirish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-dekabrdaqi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 12-dekabrdaqi PQ-431-sonli qarori ijrosi haqida”gi 612-6-0-Q/24-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12 dekabrdaqi PQ-431-son qarori bilan:

Qishloq xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining paxta yetishtiruvchilar bilan kelishgan holda 2025-yildan boshlab barcha paxta ekiladigan maydonlarda bosqichma-bosqich paxta chigitini qator orasi 76 sm kenglikda qo‘shqator qilib, aniq donalab ekuvchi ko‘p funksiyali chigit ekish seyalkalari orqali (plyonka ostiga shlang bilan) ekishga va paxta xomashyosi hosilini mashinalar yordamida terib olishga o‘tish to‘g‘risidagi axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Qishloq xo‘jaligi vazirligi 2025-2026-yillarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar, qishloq xo‘jaligi kooperatsiyalari, qishloq xo‘jaligi korxonalar va mahallalarga agrotexnik xizmatlar ko‘rsatuvchi tadbirkorlarga mazkur qarorga 1-ilovada keltirilgan zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalarini kredit yoki lizing shartlarida yetkazib berishni tashkil etishi uchun Jahon bankining:

“Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish” loyihasi doirasida ajratilgan mablag‘lar hisobidan 34 million AQSH dollari hamda “Farg‘ona vodiysida qishloq tadbirkorligini rivojlantirish” loyihasi doirasida ajratilgan mablag‘lar hisobidan 19,5 million AQSH dollarini lizing tashkilotlariga

yoʻnaltirish boʻyicha Jahon bankining roziligi olinganligini inobatga olib, bir oy muddatda mazkur mablagʻlarning belgilangan tartibda lizing tashkilotlariga ajratilishini;

“Qishloq xoʻjaligini modernizatsiya qilish” loyihasi doirasida tayyor bogʻ va kichik agrologistika loyihalari uchun koʻzda tutilgan mablagʻlardan 65 million AQSH dollarini zamonaviy qishloq xoʻjaligi texnikalari sotib olish uchun yoʻnaltirish masalasini uch oy muddatda Jahon banki bilan kelishib, qarz bitimiga tegishli oʻzgartirishlar kiritilishini taʼminlanishi;

Belgilanishicha:

a) 2025-yil 1-yanvardan boshlab, qishloq xoʻjaligi texnikalari yetkazib berishda amaldagi qonunchilikka muvofiq qoʻllaniladigan imtiyozlar (subsidiya, soliq va bojxona imtiyozlari va moliyaviy yordamlar) faqat mahalliy ishlab chiqaruvchilar va dilerlar orqali muomalaga chiqariladigan qishloq xoʻjaligi texnikalariga nisbatan tatbiq etilishi;

b) 2027-yil 1-yanvarga qadar quyidagilar bojxona bojidan va utilizatsiya yigʻimidan ozod qilinishi:

v) 2025-yil 1-martdan boshlab amaldagi qonunchilikda belgilangan imtiyozlardan (subsidiya, soliq va bojxona imtiyozlari va moliyaviy yordamlar) foydalangan holda xarid qilingan, shu jumladan, respublikada ishlab chiqarilgan va import qilingan yangi traktorlar va kombaynlarni ularga GPS qurilmasini oʻrnatmagan holda davlat roʻyxatidan oʻtkazishi va ulardan foydalanish taqiqlanishi;

g) 2028-yil 1-yanvardan boshlab asosiy paxta va gʻalla hosili uchun paxta chigiti va bugʻ doyni ekishda aniq donalab ekmaydigan seyalkalardan foydalanish taqiqlanishi;

d) amaldagi qonunchilikda belgilangan imtiyozlardan (subsidiya, soliq va bojxona imtiyozlari va moliyaviy yordamlar) foydalangan holda xarid qilingan mazkur qarorga 1-ilovada keltirilgan yangi traktor va kombaynlar (1-6-pozitsiyalar) 3 yil davomida boshqa shaxslarga sotilganda, berilgan barcha imtiyozlar bekor qilinishi va imtiyoz summalari 25 foiz jarima qoʻllangan holda Davlat budjeti daromadiga undirilishi;

e) qishloq xoʻjaligi texnikalariga xizmat koʻrsatuvchi tadbirkorlik subyektlarining buyurtmasi (talabi) boʻyicha aholi bandligiga koʻmaklashish markazlari yoʻllanmasiga asosan ishsiz yoshlarni zamonaviy qishloq xoʻjaligi texnikalariga xizmat koʻrsatuvchi mutaxassis sifatida va ushbu texnikalarni boshqaruvchi operatorlikka (traktorchi- mashinist) oʻqitishi va qayta tayyorlashi xarajatlari Bandlikka koʻmaklashish davlat jamgʻarmasi hisobidan qoplab berilishi;

j) 2025-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvarga qadar qishloq xoʻjaligi texnikalarini taʼmirlashi, agrotexnik xizmatlar koʻrsatishi, shu jumladan, ekin maydonlarini lazerli yer tekislagich yordamida tekislashi, gʻoʻzani chilpishi (chekanka) va defolatsiyalash xizmatlarini koʻrsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga (bundan klasterlar mustasno) yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻi va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari 50 foizga kamaytirishi;

Qishloq xoʻjaligi texnikalari ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalar tomonidan oʻz ehtiyoji uchun oʻrnatilgan tartibda shakllantiriladigan roʻyxat boʻyicha xorijdan olib kelinadigan qishloq xoʻjaligi texnikalarining butlovchi va ehtiyot qismlari 2028-yil 1-yanvarga qadar bojxona bojidan ozod qilinganligi;

Bunda ushbu imtiyoz hisobiga tejalgan mablagʻlarning hisobi alohida yuritilib, mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizatsiyalashga yoʻnaltirilishi va mazkur talab bajarilmaganda ushbu mablagʻlar Davlat budjeti daromadiga undirilishi belgilab qoʻyilganligi;

Qishloq xoʻjaligi vazirligi ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan oʻzgartirish va qoʻshimchalar toʻgʻrisida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilganligi ma’lumot uchun;

3. Namangan viloyati hokimining mazkur qarori bilan:

“Agrolizing” AJ viloyat filiali (Sh.Turg‘unboyev), viloyat Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (N.Xudoyberdiyev), “Norin-Sirdaryo” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (J.Rizzayev), Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi viloyat boshqarmasi (N.Karimov), tumanlar hokimlari bilan birgalikda:

2025-yilda xarid qilinadigan paxta terish mashinalari, lazerli yer tekislagichlar, aniq donalab ekuvchi ko‘p funktsiyali chigit ekish seyalkalarini xarid qiladigan talabgorlar ro‘yxatini shakllantirishi, yetkazib beruvchilar bilan shartnomalar tuzishi va bo‘nak mablag‘larini yo‘naltirish ishlarining 2025-yil 1-fevralga qadar yakunlanishini ta‘minlanishi;

Viloyat hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari A.Xakimov, “Agrolizing” AJ viloyat filiali (Sh.Turg‘unboyev), tumanlar hokimlari bilan birgalikda qishloq xo‘jaligi texnikalari yetkazib beruvchi dilerlarga servis xizmatlari ko‘rsatish shoxobchalarini tashkil etish uchun qonunchilikda belgilangan tartibda zarur bino-inshootlar olishga amaliy yordam ko‘rsatishi ijro uchun qabul qilinsin.

5. Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi, Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (A.Xakimov), “Suv yetkazib berish xizmati” DM (I.Abdullayev), Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi tuman bo‘limi (M.Usmanov), Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (X.Inomov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi, tuman tijorat banklari bilan birgalikda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-dekabrda 612-6-0-Q/24-sonli qarori talablaridan kelib chiqib ish tashkil etsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov